

MUQIMIY IJODI VA MILLIY UYG'ONISH DAVRI ADABIYOTI*Mamajonova Mohiraxon Abduxalil qizi**Farg'ona davlat universiteti Filologiya fakulteti talabasi***Annotatsiya**

Mazkur maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yuzaga kelgan milliy uyg'onish jarayonining adabiy mohiyati hamda Muqimiy ijodining ushbu davr bilan uzviy aloqasi ilmiy asosda yoritiladi. Shoir asarlarida aks etgan ijtimoiy tanqid, realizm, xalqchilik va ma'rifiy qarashlar milliy tafakkur evolyutsiyasi nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: milliy uyg'onish, ma'rifatparvarlik, realizm, ijtimoiy tanqid, satira, demokratik adabiyot, Muqimiy

Kirish

Davr o'zgarishi bilan har bir sohada yangilanishlar yuzaga keladi. Uqaysi davr bo'lmasin, qaysidir xususiyati bilan boshqa davrlardan ajralib turadi. Adabiy davrlarga ham xuddi shu ta'rifni qo'llash mumkin. Sababi har bir adabiy davrni boshqalardan ajratib turuvchi alohida bir jihati mavjudki, adabiyotshunos olimlar tomonidan bu hodisalar hali hanuz tadqiq etib kelinmoqda. Biz o'rganayotgan milliy uyg'onish davri Qo'qon adabiy muhitidagi o'ziga xosliklar olimlar tomonidan atroflicha talqin etilgan. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotining sifat jihatidan yangi bosqichga o'tgan davridir. Bu jarayon adabiyotni faqat estetik hodisa sifatida emas, balki jamiyatni anglash va isloh etish vositasi sifatida talqin qilishga olib keldi. Ushbu bosqichda ijodkorlar xalq hayotini real tasvirlash, ijtimoiy muammolarni ochish hamda ma'rifat g'oyalarini targ'ib etishga alohida e'tibor qaratdilar. Shu kontekstda Muqimiy ijodi o'tish davrining muhim badiiy hodisasi sifatida namoyon bo'ladi. Muqimiy asl ismi- sharifi Muhammad Aminxo'ja Mirzaxo'ja o'g'li (1850–1903). Shoirning „ Muqimiy ” taxallusi - „ doimiylik ” ma'nosini anglatadi, o'zbek demokratik adabiyoti asoschilaridan biri bo'lib, uning ijodi mumtoz an'ana bilan yangi davr tafakkuri o'rtasida ko'prik vazifasini bajargan . Shoir hayoti davomida jamiyatdagi tengsizlik, amaldorlar adolatsizligi va iqtisodiy muammolarni bevosita kuzatgan va bu holatlarni badiiy ifoda vositasiga aylantirgan. Sovet tuzimiga ko'r-ko'rona taqlid, bo'ysunush va amallarga ko'chirish oqibatida o'zbek millatiga to'g'ri kelmaydigan saylov sistemasining bu mojarosi, xalq boshiga keltiradigan kulfatlari Muqimiy o'z satiralarida aks ettirilgan. Bunga yaqqol misol saylov satirasini ko'rishimiz mumkin :

Qachon kim bo'ldi Hakim amri birlan ibtido saylov,
Amaldor ahliga ahli boshiga bo'lib keldi balo saylov.
Teraklar bargidek titrab,jami qozi-mingboshi

Degoylarkim:“yuzinii teskari qil,ehXudo saylov”.

Sochib qarzi-quvalo,pul ko‘tarib,istab mansab,

Bo‘lolmay ko‘p kishini sindirib,qildi gado saylov.

Olurg‘a pora Ellikboshilarning boshi-qozidin,

Ijobat bo‘ldi-bo‘ldi aylaredilar duo saylov .

She‘rdan ko‘rinib turibdiki, chor amaldorlar mansab talashib saylovchilarni (Soqqa tashlovchilarni)pora bilan sotib olishgan. Bunday “shoshilinch vaqtda” vaqt uchun zarur mablag‘ni jamg‘arib quymagan amaldorlar qarz-havola qilishga va pul kuchi bilan amalni sotib olishga harakat qilishgan. Bunday vaqtda kimning puli ko‘p bo‘lsa, kim ko‘p “zar sochsa”, o‘sha “amaldorlikka” muyassar bo‘lar edi. Amalga erishgan amaldor esa saylov vaqtida lavozimga erishish uchun sarf etgan pullarini ishlab olish uchun yangi-yangi xalqni talov usullarini o‘ylab chiqarar edi. Shunday qilib, saylovning butun og‘irligi oddiy xalq boshiga, kosib, hunarmand, chorakor dehqon boshiga tushar edi. Satiradan anglashimiz mumkinki, bu davr siyosati noto‘g‘ri tizim asosida boshqarilayotganini yani nafaqat pora bilan balki, tanish- bilishchilik, noqonuniy to‘lovlar, o‘z amalini suviste‘mol qilishlik kabi jamiki yomon illatlarni o‘zida jamlagan. Saylovlar oqibatida amaliga nomunosib insonlar o‘tgani ham shoir nazaridan chetda qolmagan va boshqa bir asarlarida “Har yerda bulbul o‘rnini zog‘lar egallab oldi” deb tanqid qilib qo‘ygandi. Bu saylov boshlanishidan tugagunga qadar amaldorlar-u butun xalqni tashvishganini solganini “Muqimiy, og‘ridi boshlar haloyiq guftu-go‘yidim, Shahar tinchib qolurdi ado bo‘lsachi emdi ado saylov” degan jummalarda ham ko‘rishimiz mumkin.Uning “Tanobchilar”, “Saylov”, “To‘y”, “Moskovchi boy ta‘rifida” kabi asarlarida ijtimoiy illatlar keskin fosh etiladi . Bu jihat Muqimiyni oddiy lirika doirasidan chiqarib, ijtimoiy ongni shakllantiruvchi ijodkor darajasiga ko‘taradi. Muqimiy asarlarining markazida real hayot tasviri turadi. U jamiyatdagi muammolarni bevosita ko‘rsatish orqali o‘quvchini fikrlashga undaydi. Shoir hajv va satira orqali korrupsiya, jaholat va tabaqaviy tafovutlarni ochib beradi.Ilmiiy manbalarda qayd etilishicha, uning ijodida ijtimoiy-iqtisodiy hayot tasviri muhim o‘rin egallaydi va bu asarlar o‘z davrining real manzarasini aks ettiradi . Shu bois Muqimiy o‘zbek realizmining shakllanishida muhim rol o‘ynagan ijodkor sifatida baholanadi.Muqimiyning asarlarida davrning iqtisodiy, ijtimoiy- siyosiy voqealari, zamon notinchligi, manaviy-ahloqiy tanazzul haqida so‘z boradi. Bundan tashqari, “Turkiston viloyatining gazetasi”ning1994-yil 15- mart 10-sonida quyidagi malumotlar uchraydi: “Yomon odamlar falon odamning puli borekan deb, pul borligini bilib, kechasi uyiga kirib, zo‘rlik bilan pulini tortib olib va bazi vaqtlarda sohibi pulni qatl aylab ketadurlar. Bu tariqa xodisa ushbu yili yozida “Tungan” qishlog‘ida voqea bo‘lib erdi. Bir eru xotun o‘z mulklarini sotib, nechand pullarni jam aylar ekanlar. Shul kuni kechasi o‘g‘rilar uyga kirib, eru xotunni o‘ldirib chiqib ketibdurlar” Muqimiyning “Dar mazzamati zamona ” sarlavhali 17 baytli sheri ayni shu singari aholining

nochorligi, ma'naviy inqirozlar va qonunlar tizimlashmagani aks ettiradi. Milliy uyg'onish g'oyalari bilan bog'liq. Milliy uyg'onish davrining asosiy belgisi – ma'rifatparvarlik va jamiyatni yangilashga intilishdir. Bu davrda adabiyot xalqni uyg'otish, ilmga undash va eski qarashlarni tanqid qilish vositasiga aylandi. Adabiyotshunoslik manbalarida u milliy uyg'onish davri adabiyotining yetuk vakillaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Demak, uning faoliyati jadidchilik harakatining shakllanishiga zamin yaratgan muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Muqimiy ijodining muhim xususiyati — xalqona til va sodda ifodaning ustunligidir. U murakkab tasvirlardan ko'ra, tushunarli va aniq bayon orqali keng ommaga murojaat qiladi. Shuningdek, shoir “sayohatnoma” janrini rivojlantirib, adabiyotga yangi shakliy yo'nalish olib kirgan. Bu esa milliy adabiyotning janr jihatdan boyishiga xizmat qilgan.

Xulosa

Muqimiy ijodi milliy uyg'onish davri adabiyotining ajralmas qismi sifatida tarixiy va badiiy ahamiyatga ega. Uning asarlarida xalq hayoti, ijtimoiy adolatsizlik va ma'rifat zarurati chuqur ifodalangan. Shoir badiiy so'z orqali jamiyat ongiga ta'sir ko'rsatgan va o'zbek adabiyotida yangi bosqichning shakllanishiga xizmat qilgan. Shu jihatdan Muqimiy ijodi nafaqat o'z davrining mahsuli, balki keyingi ma'rifatparvarlik va jadid adabiyoti rivojining muhim nazariy va badiiy asoslaridan biri sifatida baholanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yoqubov H., O'zbek demokrat shoiri Muqimiy, T., 1953
2. Zarifov H., Muhammad Amin Muqimiy, T., 1955;
3. Karimov F., Muqimiy. Hayoti va ijodi, T., 1970;
4. Karimov G'. O'zbek adabiyoti tarixi. 3-kitob, T.. 1975.
5. Karimov G'. Muqimiy hayoti va ijodi. T., 1970.